

## Oqsaroyda qabul

---



### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 18-may kuni Oqsaroyda Bolgariya Respublikasi Bosh vaziri Boyko Borisovni qabul qildi.**

Davlatimiz rahbari mehmonni samimiy qutlar ekan, Bolgariya Bosh vazirining O'zbekistonga ilk tashrifi o'zaro munosabatlarda muhim voqea bo'lib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda yaxshi imkoniyat ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston Bolgariyani an'anaviy va ishonchli iqtisodiy hamkor deb biladi, o'zbek va bolgar xalqlari uzoq yillik do'stlik aloqalariga ega.

Uchrashuvda iqtisodiy hamkorlikning keng ko'lamlı masalalari – sanoat, transport kommunikatsiyalari, turizm, shuningdek, zamonaviy qo'shma sanoat korxonalarini tashkil qilishning istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi.

Tomonlar Bolgariya Bosh vaziri tashrifi doirasida 18-may kuni "Angren" maxsus industrial zonasida yuqori texnologiyali yangi "UzPristaoyl" qo'shma korxonasining ochilishi o'zaro manfaatli hamkorlikning yorqin misoli bo'lganini qayd etdilar. "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi va Bolgariyaning "Prista Oyl" kompaniyasi tomonidan ta'sis etilgan mazkur korxonada sintetik va yarim sintetik motor moylarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan.

B.Borisov yangi korxonaning eksport salohiyati yuqori ekanini, O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy" va "Angren" maxsus iqtisodiy va industrial zonalarda xorijiy sarmoyadorlarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun qulay sharoit yaratilgani, bu yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ekanini ta'kidladi. Bu Bolgariya kompaniyalariga Markaziy, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bozorlariga chiqish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bolgariyada olib borilayotgan va asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni kengaytirish, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'lgan iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

Bolgariya Bosh vaziri O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar strategiyasi natijasida tub iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga erishilganini yuqori baholadi. Bugungi islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar O'zbekistonning yanada taraqqiy etishida muhim omil bo'layotganini qayd etdi.

Tomonlar o'zaro savdo aloqalarini yanada kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidladi. O'zbekiston Bolgariya bozoriga keng turdagi sanoat mahsulotlari eksport qilish va ushbu mamlakatdan yuqori texnologiyali tovar va uskunalar import qilishdan manfaatdor.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Bolgariya o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalaridagi istiqbolli yangi loyihalarni ishlab chiqish uchun ishbilarmon doiralar delegatsiyalari almashish bo'yicha kelishib olindi.

B.Borisov Prezidentimizga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Bolgariya O'zbekiston bilan ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

**O'ZA**

[Havola:http://uza.uz/uz/politics/oqsaroyda-qabul---18-05-2016](http://uza.uz/uz/politics/oqsaroyda-qabul---18-05-2016)